



O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

O'QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

TUYCHIYEVA RAVSHANOY Farg'ona shahar 2-umumiy
o'rta ta'lim maktabi o'zbek tili fani o'qituvchisi

O'QISH SAVODXONLIGI TUSHUNCHASI



O'qish va o'qish savodxonligi tushunchalari yillar davomida o'zgarib, jamiyat, iqtisodiyot, madaniyat va texnologiya sohalarida o'z aksini topdi. Bugungi kunda bu qobiliyat shaxs butun umri davomida tengdoshlari va keng jamoatchilik bilan muloqot qilish asosida rivojlantirib boradigan bilim, ko'nikma va malakalar, usullar jamlanmasi sifatida ta'riflanadi. Jamiyat hayotida to'liq ishtirok etish maqsadida inson uchun bilim olish, barcha ma'lumotlarni aniqlash, tushunish va aks ettirish qobiliyati juda muhimdir. O'qish savodxonligi yutuqlarga erishish uchun asos, zaruriyat hisoblanadi.

O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir.

O'qish savodxonligiga ta'sir etuvchi omillar



Tushunish

“Tushunish” soʻzi “oʻqib tushunish” atamasining ommaviy tasdiqlangan tushunchasi bilan uzviy bogʻliq boʻlib, bunda oʻqish orqali oʻquvchining avvaldan mavjud bilimi bilan matndan olingan maʼlumotni maʼlum darajada integratsiyasini talab etadi.



Foydalanish

“Foydalanish” soʻzi vazifasi va amalda qoʻllanishiga koʻra maʼlum bir oʻqigan narsamizdan biror maqsadda foydalanishni anglatadi.



Mulohaza yuritish

“Mulohaza yuritish” shuni anglatadiki, bunda oʻquvchilar matn bilan ishlayotgan vaqtda oʻzlarining shaxsiy fikrlari va tajribalaridan foydalanishadi.



Munosabat bildirish

“Munosabat bildirish” bu oʻqilgan matnga nisbatan shaxsiy fikr bildirish, uni oʻz tajribasi va tushunchalari asosida tahlil qilish hamda oʻz qarashlarini asoslash jarayonidir.





TUSHUNISH

Matnni to'g'ri anglash va asosiy ma'lumotlarni ajratish qobiliyati.

Misol:

Matnda berilgan quyidagi gapni tushuntiring:

“Iqlim o'zgarishi global muammo bo'lib, uning oldini olish uchun har bir inson o'z hissasini qo'shishi kerak”.

Savol: Ushbu gapdan qanday asosiy xulosa chiqarish mumkin?

✓ To'g'ri javob: Iqlim o'zgarishiga qarshi har bir inson o'z mas'uliyatini his qilishi lozim.



FOYDALANISH

Olingan ma'lumotni amaliyotda qo'llash qobiliyati.

Misol:

Matnda quyidagicha ma'lumot berilgan:

“Kuniga kamida 30 daqiqa jismoniy mashq bajarish inson salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi”.

Savol: Ushbu ma'lumot asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha qanday tavsiyalar berishingiz mumkin?

✓ To'g'ri javob: Har kuni 30 daqiqa yurish yoki jismoniy mashqlar qilish tavsiya etiladi.



MULOHAZA YURITISH

O'qilgan ma'lumotni tahlil qilish va uning asosli yoki mantiqiy ekanligini baholash qobiliyati.

Misol:

Matnda quyidagicha ma'lumot berilgan:

“Texnologiya rivojlanishi tufayli odamlar kitob o'qishdan ko'ra internetdan ma'lumot olishni afzal ko'radilar”.

Savol: Siz bu fikrga qo'shilasizmi? Nima uchun?

✓ To'g'ri javob: Har ikki manba ham foydali, lekin internet ma'lumotlari doim ham ishonchli bo'lavermaydi.

Munosabat bildirish

Matnga shaxsiy fikr va nuqtayi nazarni bildirish qobiliyat.

Misol:

Matnda quyidagicha fikr ilgari surilgan:

“Baxt pulda emas, balki insonning hayotdan qoniqishida”.

Savol: Siz bu fikrga qanday munosabat bildirasiz? Nima uchun?

✓ To‘g‘ri javob: Men bu fikrga qo‘shilaman, chunki baxt nafaqat moddiy boylikka, balki insonning oilasi, sog‘ligi va do‘stlari bilan bo‘lishiga ham bog‘liq



O'QISH SAVODXONLIGINING UCHTA DARAJASI MAVJUD.

Quyi daraja

o'qituvchi
ko'magiga
muhtoj



O'rta daraja

to'liq
o'zlashtirmagan






Yuqori daraja

keyingi ta'lim
bosqichiga tayyor



SAMARALI O'QISH TEXNOLOGIYASI MATN BILAN ISHLASHNING 3 BOSQICHINI O'Z ICHIGA OLADI



I-bosqich. O'qishdan oldin matn bilan ishlash.

Maqsad - o'qishni bashorat qilish.

semantik, tematik,
hissiy yo'nalishini
aniqlash



bolalarning o'qish
tajribasiga
asoslanish



asar nomi, kalit
so'zlar, matndagi
qahramonlarni ajratib
ko'rsatish



o'quvchining
tarbiyaviy,
motivatsion,
emotsional,
psixologik
tayyorligi




dars maqsadlarini
to'g'ri belgilash



II-bosqich. O'qish jarayonida matn bilan ishlash.

Maqsad - matnni mundarijasi darajasida tushunish.



1. Bosqich matnni dastlabki o'qishdan boshlanadi.

2. Matnni qayta o'qishga alohida ahamiyat qaratiladi.

3. Umumiy mazmun bo'yicha suhbat, o'qilganlarni umumlashtirish, matnga umumlashtiruvchi savollar berish.


4. Ifodali o'qish.

II-bosqich. O'qish jarayonida matn bilan ishlash.

Maqsad - matnni mundarijasi darajasida tushunish.


“Matn orqali muallif bilan suhbat” texnologiyasi

- matndan muallifning to'g'ridan-to'g'ri va yashirin savollarini ko'rishga o'rgatish;
- o'quvchilarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish: bir so'z, ba'zi tafsilotlar, matnli ma'lumotlarga ko'ra, o'quvchi bundan keyin nima bo'lishini, voqealar qanday rivojlanishini, bu epizod qanday tugashini taxmin qilish;
- o'qish jarayonida muallifga o'z savollari bilan murojaat qilishga o'rgatish;
- boshlang'ich o'qish jarayonida o'quvchilarga muallif bilan mustaqil dialog o'tkazishga yordam berish.



II bosqich. O‘qish jarayonida matn bilan ishlash.

Maqsad - matnni mundarijasi darajasida tushunish.




“Izohli o‘qish” texnologiyasi

- referen (O‘qituvchi o‘quvchidan keyin biror so‘z yoki iborani takrorlab, savol beradi. O‘quvchilarning javoblari qabul qilinadi, lekin sharhlanmaydi).
- tasavvurni kengaytirish (Tasavvur qildingizmi?).
- keyingi suhbatni talab qilmaydigan eng "ixcham", "qisqa" savollar tuzish (Masalan, “Keyin nima?” O‘quvchilarning javoblari qabul qilinadi, lekin sharhlanmaydi).

II bosqich. O‘qish jarayonida matn bilan ishlash. Maqsad - matnni mundarijasi darajasida tushunish.

Ifodali o‘qish



- artikulyar gimnastika; bir gapni turli intonatsiyalar bilan o‘qish;
- o‘qituvchi nutqiga taqlid qilish;
- tez aytish; audio eshitish;
- xor bo‘lib o‘qish; mantiqiy urg‘u ustida ishlash; rolga bo‘linib o‘qish;
- matnni sahnalashtirish; musiqa ostida o‘qish;
- “Nido” mashqi (o‘qituvchi nutqini takrorlash); “Tezlik” mashqi (matnni tez temp bilan o‘qish);
- matnni bo‘laklash (pauza, mantiqiy urg‘u, ovoz baland//pastligi)

III bosqich. O'qishdan keyin matn bilan ishlash.

Maqsad - matnni mazmuni darajasida tushunishga erishishdir.

Yozuvchi, shoir bilan
tanishish texnologiyasi.



Darslik materiallari,
qo'shimcha manbalar
bilan ishlash.




Sarlavha,
illyustratsiyalar bilan
ishlash.



Matn bilan ishlash matn
yuzasidan konseptual
(semantik) suhbat
asosida davom etadi.



O'quvchilarning o'qish
faoliyatining istalgan
sohasiga asoslangan
ijodiy topshiriqlar.



III bosqich. O'qishdan keyin matn bilan ishlash.

Maqsad - matnni mazmuni darajasida tushunishga erishishdir.

Yozuvchi, shoir bilan
tanishish
texnologiyasi.




Darslik materiallari,
qo'shimcha
manbalar bilan
ishlash.





Sarlavha,
illyustratsiyalar bilan
ishlash.



Matn bilan ishlash
matn yuzasidan
konseptual
(semantik) suhbat
asosida davom etadi.



O'quvchilarning o'qish
faoliyatining istalgan
sohasiga asoslangan
ijodiy topshiriqlar.



Grafik illyustratsiya.

- Matnni o'qigandan so'ng his qilganingizni rasm orqali tasvirlang.
- Matndan olgan g'oyangiz asosida "Idrok xaritasi" yarating.

Og'zaki illyustratsiya (chizma).

O'qilgan asar asosida bolaning o'z fikr va his-tuyg'ularini ifodalash qobiliyati. Og'zaki rasm chizishni o'rganish janr (syujet) rasmlarini yaratishdan boshlanadi.

Ijodiy qayta hikoya qilish.

- Taassurotlaringiz bo'yicha esse yozing.
- Hikoyada tasvirlangan vaziyatdan oldin nima sodir bo'lishi mumkinligini qo'shib yangi hikoya yarating.
- Hikoyada tasvirlangan voqealardan so'ng qizning hayoti qanday kechishi haqida hikoyani davom ettiring.
- Tasavvur qiling-a, do'stingizda to'g'ri matn yo'q va u berilgan hikoyani o'qiy olmaydi. Siz unga matnni telefon - orqali qisqacha aytib berish orqali yordam berishingiz mumkin.

O‘qilgan matn bo‘yicha videolar yig‘ish

- Matndagi voqealarni tasvirlab videorolik yarating.

Sahnalashtirish

- Matndagi voqealarni sahnalashtiring.
- Greta Tunbergni qo‘llab-quvvatlagan holda musiqiy chiqishlar tayyorlang.
- Matndagi voqealarni pantomima yo‘li bilan tasvirlab bering.

O‘yin harakatli ijodiy topshiriqlar:

- “Ekologiyani asrash – insoniyatni asrash” (“Ekologiya va dunyo”, “Tabiat himoyachisi”, “Ona tabiatni asraylik” kabi mavzularda) “qo‘lbola” kitobini yarating.

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

